

## YOZUVCHI ABDULHAMID CHO'LAPONING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDAGI AYRIM FRAZELOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.

Payzirakhmonova Setora Muhammadali qizi.

Samarqand Davlat Chet Tillari Institutining Ingliz tili 2 fakulteti

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi

2203- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7540670>

**Annotatsiya :** Bugungi kun tilshunosligida til birliklarining lingvumadaniy xususiyatlarini kognetiv nuqtai nazardan o'rganish va tasnif etish muhim rol o'ynaydi. O'zbek milliy adabiyotidagi frazeologik birikmalarni tadqiq etish orqali o'zbek milliy-madaniy dunyoqarashini, xalqning madaniy tarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini erkinroq aks etirish mumkin. Mazkur ilmiy tadqiqotda Abdulhamid Cho'lponing "Kecha va Kunduz" romanidan olingan bir qancha iboralar va ularning tuzilishi hamda ularning turlari haqida ma'lumotlar va misollar berildi.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologik bog'lanish, frazeologik chatishma, frazeologik butunlik(birlashma), frazeologik qo'shilma, ma'nodosh iboralar, sinonim iboralar, belgilik xususiyati, iboralarning mazmun va ifoda plani.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazeologiyada o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

Bizning o'zbek(turk) xalqi tilshunoslik sohasida eng qadimdan boshlab jahon xalqlari madaniyatidan boshlab juda katta rol o'ynab kelgan, uning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yurtboshimiz ta'kidlaganlariday, "Tariximiz, mafkuramiz, milliy psixologiyamiz o'ta kuchli namunali millat ekanligimizni nishonasidir".

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshqa fanlar singari tilshunoslik fanniga ham katta e'tibor qaratdi. Shu bilan birga, mustaqillik davrida tilimizning frazeologik birligini to'liq qamrab oluvchi turli xil izohli lug'atlar, so'zliklar yaratishga alohida e'tibor berildi. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A.

Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

Frazeologiya (yun. phrasis – ifoda, ibora va logiya). 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniklash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniklash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqa frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarining umumiy nomi. Frazemalar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi, ya'ni

frazeologik birlik tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug'i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir va boshqalar. Frazeologik birliklar tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologik birliklarning quyidagi turlari farqlanadi: frazeologik chatishma — frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi, frazmadan anglashilgan ko'chma ma'noning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlanmaydi: to'nini teskari kiymoq, oyog'ini qo'lga olib chopmoq, boshini olib chiqib ketmoq va boshqa; frazeologik butunlik (birlashma) — frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izoxlanadi, shu ma'nolar asosida umumlashtiruvchi ko'chma ma'no ifoda qilinadi (ko'pincha bunday birlashmalarning o'z ma'nosida qo'llanadigan variantlari ham mavjud bo'ladi): yog' tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, xamirdan qil sug'urgandek, to'ydan oldin nog'ora chalmoq va boshqa; frazeologik qo'shilma — bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi: gapning tuzi, qo'li gul, ishtaxasi ochildi va boshqalar.

Ma'nodosh iboralar. Bir-biriga ma'nosi yaqin iboralar ma'nodosh iboralar (Frazeologik sinonimlar) deyiladi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ularni ayni bir ma'noni anglatish shart. Busiz sinonimlik haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunmaslik kerak. Har bir sinonim shu sinonimik uya uchun umumiy ma'nodan tashqari o'ziga xos ma'no qirrasiga ham ega bo'ladi. Masalan yer bilan yakson bo'lmoq-yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko'ka sovurmoq-kuli ko'kka sovurildi iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi["butunlay yemirmoq,yo'q qilmoq"]. Bu sinonimlar ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no biroz kuchliroq.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, " juda oz, jinday, qittay" ma'nolarini bildiruvchi bir og'iz , bir shingil, bir chimdim sinonim iboralar asosida har xil obrazlar yotadi: bir og'iz-so'zlash a'zosida, bir shingil-bir bosh uzumning qismi bir chimdim-chimdim olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun ibora tarkibidagi so'zlar e'tibor berish kerak. Ibora tarkibida turli so'zlar qatnashgan bo'lsa, ular o'zaro sinonim iboralar bolaveradi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha iboralari sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'zlar yo'q.

Sinonim iboralarning leksik tarkibida biror qismi ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bundagi boshqa -boshqa so'zlar bilan ifodalangan qismlari o'zaro sinonim bo'lmasligi kerak. Masalan, jonim hovuchlab va yuragini hovuchlab iboralari-sinonim iboralar hisoblanadi. Bu iboralar tarkibida hovuchlab so'zi har ikkalasida ham qatnashgan - bir leksik komponenti bir xil so'z bo'lgan, lekin jonini va yuragini so'zlari - ikkinchi leksik komponenti boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalanib, o'zaro sinonim emas. Ko'ngliga tugmoq, yuragiga tugmoq o'zaro bir iboraning variantlari hisoblanadi, ular sinonim iboralar hisoblanmaydi, chunki. Bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi (tugmoq), ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim.

Agar so'z va iboralar ma'nodosh bo'lsa, leksik-frazeologik sinonimlar deb ataladi. Masalan: yog' tushsa yalagudek -toza; ilonning yo'gini yalagudek -ayyor kabi.

Qarama -qarshi ma'noli iboralar zid ma'noli iboralar (frazeologik antonimlar) deyiladi. Masalan: dunyoga kelmoq-dunyodan ketmoq; yerga ursang ko'kka sapchidigan - qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi. Agar so'z va ibora zid ma'noli bo'lsa, ular leksik-frazeologik antonimlar deb ataladi. Masalan: qimmat suv tekin; baxil- qo'li ochiq kabi.

Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi - omonimlik frazeologik birliklarda ham mavjud. Shakli bir xil, ma'nosi har xil iboralar shakildosh iboralar(frazeologik omonimlar) deyiladi. Masalan: boshga ko'tarmoq I - e'zozlamoq; boshga ko'tarmoq II - shovqin solmoq kabi.

Iboralarning eng asosiy belgilari sifatida quydagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1)Iboralarning tarkibida ikki yoki undan ortiq so'zlar qatnashgan bo'ladi.
- 2)Ibora yaxlit bir lug'aviy ma'noni ifodalaydi.
- 3)Iboraning tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nolarni yo'qotgan bo'ladi.
- 4)Ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimlik holatda bo'ladi.
- 5)Iborani faqat yaxlitligicha almashtirish mumkin.
- 6) Ibora gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintatik vazifada keladi.
- 7) Ibora boshqa tillarga so'zma so'z tarjima qilib bo'lmaydi, yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan bir qancha iboralar va ularning tuzulishi va turlari haqida ma'lumotlar va misollar berildi.

1.Saltanat u tog'rida bu yosh qizga gap ochib, uning yorug' tabiyatini xira qilmasdan, o'z onasi orqali Zebining onasiga eshtirib qo'ymoqchi bo'lardi[ Abdulhamid Cho'lpon 2017:69].

Gapdagi "tabiyati xira" iborasining sinonimlari: ta'b(i) xira bo'ldi -ta'b(i) kir bo'ldi, ta'b(i) nomoz shom, ta'b(i) xira. Bu iboraning tuzilishi ot+fe'l shaklida.

Ushbu kantekstda "tabiyatini xira qilmoq" iborasi kayfiyatini buzmoq, dilini xira qilmoq ma'nolarida kelib, tuzilishi ot+fe'l shaklida

2. Ikki qiz ham og'iz ochmay jim qolishdi. Chunki Razzoq so'fining mijozini ularning ikkalasi ham yaxshi bilardi.[Abdulhamid Cho'lpon 2017:8]

Ishbu "og'iz ochmoq" iborasi gap boshlamoq ma'nosida kelgan bo'lib, tuzilishi ot+ fe'l shaklida kelgan.

3. Ularning allaqaylardan daromad qilib kelib zo'rg'a ipini uchini chiqardiyu, men „yo'q" dep tomdan tarasha tushganday javob beramanmi.[Abdulhamid Cho'lpon 2017:76]

Tomdan tarasha tushganday" iborasi frazeologizm bolib, qo'qisdan, dabdurusdan, kutilmagan holda degan ma'nolarda kelgan. Ushbu ibora ot+fe'l shaklida.

4. Ayniqsa Minboshi og'ziga paxta tiqqan kabi jiddiy sukutga qolmishdi.[Abdulhamid Cho'lpon 2017:95]

Ibora ma'nosi. Og'ziga paxta tiqqan -mutloqo gapirmaslik, suxbatda mutloqo gapirmaslik. Ushbu kantekstda "og'ziga paxta tiqqan" iborasi foydalanilgan bo'lib, uning sinonimi: og'ziga nos solmoq, mum tishlamoq, og'ziga qattiq ivitmoq, og'ziga tolqon solmoq kabilardir. Bu iboraning tuzilishi ot+fe'l shaklida anatomik frazema

5. Albatta, ko'ngillarda hech gapni saqlamaydigan og'zi bo'sh odamlar bo'ladi.[Abdulhamid Cho'lpon 2017:89]

Ushbu gapda "Og'zi bo'sh" iborasi og'zida gap turmaydigan ya'ni sir saqlay olmaydigan degan ma'noda qollanilad. Tuzilish shakli ot+ sifat ko'rinishida.

6. Shaharning buzuqlik ila nom chiqargan mashhur nomerlaridan biri edi.[Abdulhamid Cho'lpon 2017:118]

Ushbu kontekstdagi nom chiqarmoq iborasi -mashxur bo'lmoq va ko'zga tanilmoq ma'nosida kelgan bo'lib, ot +fe'l shaklida. Sinonimi: dong'i ketmoq

7. Miryoqub ham shunday o'ylasa kerak; bir jon, bir tan emasmi axir!Dunyoga hamma odam bolalari bizning ikkimizdek bo'lsalar, dunyo jannat bo'lardi".

Ushbu gapdagi bir joni bir tan bo'lmoq iborasi -hammjihatlikda ish qilmoq, yakdil bo'lmoq degan ma'noni ifodalagan. Tuzilish shakli ot+ fe'l shaklida.

Sinonimi: bir yoqadan bosh chiqarmoq.

8. -- Siz endi bu xotinni qo'ldan chiqarmang! Bu bizning boshimizda danak chaqayotgan bir dunyoning qizi.[Abdulhamid Cho'lpon 2017:178]

Gapdagi "boshida danak chaqmoq" iborasi - azoblamoq qiynamoq degan ifodani beradi va ot + fe'l shaklida kelgan. Sinonimi:boshida yong'oq chaqmoq .

9.Bugunoq gaplashaman otang bilan.Tepa soching tik bo'lmay tursin.[ Abdulhamid Cholpon 2017: 194]

. Kontekstdagi :Tepa sochning tikka bo'lmoq iborasi - nimadandir tashvishlanmoq,to'satdan jahli chiqmoq kabi ma'nolarni anglatib, Tuzilishi ot+ fe'l shaklida anatomik frazema. Kanabalizim belgisi mavjud . Sinonimi :Jonni chiqmoq, miyyasini qoqib qo'liga bermoq.

10.,, Kerak bo'lmaganda, quloq-miyangni yeydi. Kerak bo'lmaganda jimib keladilar.Teskari bu dunyo!"

Gapdagi :quloq miyani yemoq iborasi nimanidir so'rab charchatmoq, sergapligi bilan joniga tegmoq ma'nosini ifodalagan. Ma'nodoshi: miyasini qoqib qo'liga bermoq.Sinonimi: miyasini qoqib qo'liga bermoq.

Xullosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlar-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, ierarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. «O'qituvchi» nashriyot. Toshkent 1978-yil.
2. Cho'lpon /Kecha va kunduz -Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy, 2017.-272b.
- 3.Erkaboyeva N., O'zbek tilida ma'ruzalar to'plamini.«Yosh kuch» Toshkent 2021.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент, 2007/2010.